

**SUVEREN, DEMOKRATIK VA HUQUQIY DAVLAT TUSHUNCHASI,
BELGILARI VA HUQUQIY TABIATI**

Mamadjanov Jamshidbek Nigmatulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Davlat boshqaruvi huquqi” magistranti

mamadjanovjamshidbek@gmail.com

+998990302048

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining suveren, demokratik va huquqiy davlat sifatida shakllanish bosqichlari, tarixi va turli xil olimlarning fikrlari tahlil o‘rganilgan, shuningdek konstitutsiyadagi bu normalarning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Suverenitet, huquqiy davlat, demokratik davlat, huquq, tarix, konstitutsiya, prinsip, nazariya.

Annotation. This article analyzes the stages of formation of the Republic of Uzbekistan as a sovereign, democratic and legal state, its history and the opinions of various scientists, as well as the legal basis of these norms in the constitution.

Keywords. Sovereignty, legal state, democratic state, law, history, constitution, principle, theory, reform.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab suveren, demokratik hamda huquqiy davlat sifatida shakllana boshladi va o‘z navbatida endigina erishilgan mustaqillikning huquqiy asoslarini ham shakllantira boshladi. 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston SSSR Mustaqillik deklaratsiyasi” O‘zbekistonning suveren, demokratik va huquqiy davlat sifatidagi ilk huquqiy maqomi bo‘ldi. Shundan so‘ng 1992-yil 8-dekabrda qabul O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu huquqiy maqomni yanada mustahkamladi. Umuman olganda, davlatning suvereniteti, uning demokratik qadriyatlarini qaror topishi hamda uning huquqiy asoslari birdaniga vujudga kelmaydi. Avvalo har bir mamlakatning suvereniteti uzoq yillik tarixiy davrlardagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar negizida shakllangan hisoblanadi.

Avvalo suverenitet nima degan savolga quyidagi javob berish mumkin. Suverenitet tushunchasi ko‘plab ta’riflar mavjud bo‘lib, mana shunday ta’riflaridan birida suverenitet tushunchasi quyidagicha izohlangan: “Suverenitet (fransuzcha: souverainete — oliy hokimiyat) — hokimiyatning ustunligi va mustaqilligidir. Suverenitetni hurmatlash — xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipi. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaviy huquq fanida davlat suvereniteti, millat

suvereniteti, xalq suvereniteti tushunchalari ishlatiladi. Davlat suvereniteti — hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to‘la mustakilligi.”¹ O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasida davlat suvereniteti alohida bobda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respubliksa shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.”² ekanligi qayd qilingan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, davlat suvereniteti tushunchasidan tashqari yana millat va xalq suvereniteti tushunchalari ham mavjud. “Millat suvereniteti — millatning to‘la hokimiyatini, uning to‘la siyosiy erkinligini, o‘z milliy hayotini belgilash real imkoniyatiga egaligini, mustaqil davlatni tashkil qila olishgacha bo‘lgan huquqqa egaligini bildiradi. Xalq suvereniteti — xalqning to‘la hokimiyatini anglatadi, ya’ni xalq jamiyat va davlatni boshqarishda real ishtirok etish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vositalarga ega bo‘ladi. Xalq suvereniteti — barcha demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy tuzum prinsiplaridan biri hisoblanadi.”³ Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga ko‘ra “Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.”⁴ Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning I bobi “Davlat suvereniteti” deb atalib, 6 ta moddadan iborat hisoblanadi va aynan ushbu moddala O‘zbekiston Respublikasi suverenitetining eng muhim huquqiy asoslarini o‘zida ifodalagan.

Suverenitet tushunchasining tushuncha sifatida shakllanishida bir qator tarixiy voqealar muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan “Suverenitet tushunchasi fanda XVII asrda sodir bo‘lgan muhim tarixiy voqelik ta’sirida shakllangan. Monarxiya davlatlari o‘ziga tegishli hokimiyat doirasida mustaqil siyosat yuritishdan manfaatdor bo‘lib, cherkov hokimiyatiga nisbatan toju taxtni mustahkamlashga harakat qilishar edi. 1648-yilga kelib, cherkov hokimiyatiga nisbatan cheklov yuridik jihatdan mustahkamlandi. Bunday hujjat *Vestfal tinchlik kelishuvi* bo‘lib, davlatlarning suveren haq-huquqlarini tan olishga qo‘yilgan ilk qadam bo‘ldi.”⁵ Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, mamlakatlarning suvereniteti bir qancha tarixiy voqealar natijasida qaror topgan hisoblandi va shakllangan. Suverenitet tushunchasiga kengroq yondashadigan bo‘lsak, mazkur tushunchani fransuz huquqshunosi va siyosatshunosi Jan Boden ilk bor fanga olib kirgan. Suverenitet haqida olimlarning turli xil fikrlari bor. Jumladan, J.Boden “Uni qonundan ustun turadigan va fuqarolar bo‘ysunadigan oliy hokimiyat

¹ Suverenitet. URL: [Suverenitet - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Suverenitet)

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/docs/-6445145>

³ Suverenitet. URL: [Suverenitet - Vikipediya \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Suverenitet)

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁵ Asadov Shavkat G‘aybullayevich, O‘zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, Yuridik davlat doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2019

(*summa in cives et subditos legibusque solute potestas*)“ ta’riflagan.⁶ Chinakam suverenitetga ega bo‘lgan mamlakat o‘zining ichki va tashqi siyosatida mustaqil faoliyat boradi. Bu borada L.Oppengeym quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan hamda suverenitetni: “davlatning mamlakat ichida va tashqarisidagi to‘liq mustaqilligi⁷” deb ta’riflagan. Bu borada fransuz mutafakkiri J.J. Russo esa suverenitet xalqniki degan fikrni ilgari surgan. T. Gobbs bu xususda o‘zicha tavsif berib, suverenitet sohibi bir shaxs, davlat boshlig‘i yoki bir necha kishilar bo‘lishi mumkinligini e’tirof etgan. U davlat zimmasiga "qo‘l ostidagilarga tinch-totuvlikni baxsh etish, ular xavfsizligini ta’minlash yuklatiladi", deb yozgan. Davlat haqidagi nazariyalar qanchalik xilma-xil bo‘lmasin, davlatning hamma yerda tashkil topish va rivojlana borish jarayoni o‘z yo‘li bilan kechdi.”⁸ Bir qator o‘zbek olimlari ham suverenitet haqida o‘zlarining fikrlari va qarashlarini bayon qilishgan, jumladan Sh.Z.O‘razaev “Suverenitet davlat mustaqil va samarali siyosat olib borishning zaruriy omili hisoblanadi. Iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va boshqa global jarayonlarda jamiyat va davlatning ishitiroki ayni vaqtda davlat suverenitetini mustahkamlashni, uni davlat institutlari faoliyatida samarali ask ettirishni nazarda tutadi”⁹, H.T.Odilqoriev “har bir suverenitet turning o‘ziga xos xususiyatlari o‘zaro uyg‘unlashtirilganda xalq suvereniteti markaziy o‘rinni egallaydi. Suverenitet hokimiyatning ustunligi va birligini hamda hujjatlar va qarorlarning barcha hokimiyat organlari, fuqarolar va umuman davlat hududidagi barcha jismoniy shaxslar uchun majburiyligini nazarda tutadi”¹⁰, Z.M. Islomovning: “suverenitet – bu ommaviy-siyosiy hokimiyatning o‘ziga itoat etuvchi hududdagi ustunligi va ushbu hududdan tashqari hukm suradigan hokimiyat tashkilotlaridan mustaqil ekanligidir.”¹¹ deb fikr bildirgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, suverenitet davlatning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi va o‘z navbatida suverenitetning mazmun-mohiyatini ochib berishda uning belgilari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, davlatning demokratik va huquqiy davlat ekanligi ham uning ajralmas komponentlaridan birlari hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab to hozirgi kunga qadar konstruktiv demokratik islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Demokratiya bu xalq hokimiyatchiligi hisoblanadi, shuning uchun ham davlat xalqning irodasiga muvofiq ish yuritadi. Demokratiya — (qadimgi yunoncha: δημοκρατία — „xalq hokimiyati“) — barcha insonlar tenglik bilan kollektiv qarorga kelish imkoniga ega siyosiy tuzum.¹² Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari

⁶ Bodinus. De Republica libri sex. Francoforti. 1954. P.123 et al.

⁷ Оппенгейм Л. Международное право. Т. 1. Мир. Полутом 1. -М., 1948. – С. 130.

⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat>

⁹ Уразаев Ш.З. Конституция независимого Узбекистана. -Т. :Адолат, 1993.-С.102.

¹⁰ Одилқориев, Х.Т. Новая Конституция – великий символ суверенитета Узбекистана.-Т. :Адолат, 1993. – С.47

¹¹ Islomov Z., Jo‘rayev J. Xalqaro huquq va milliy huquq tizimi o‘zaro nisbatining tarixiy-huquqiy, ilmiy-nazariy jihatlari // TDYU axborotnomasi. – T., 2006.- №5. B.133.

¹² Hyland J. L. Democratic Theory: The Philosophical Foundations. Manchester: Manchester Univ. Press, 1995. ISBN 978-0-7190-4517-2

amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi.¹³ Birlashgan Millatlar Tashkiloti demokratiyaga quyidagicha ta’rif beradi: demokratiya "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qiladigan, odamlarning erkin ifodalangan irodasini amalga oshiradigan muhitni ta’minlaydi"¹⁴ Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon bo‘ladiki, demokratiya bu bevosita xalqning davlat hokimiyatiga o‘z vakillarini saylash orqali bevosita hokimiyat ishlariga daxldorligidir. Ma’lumki, biron bir mamlakatda demokratiya mavjud deyish uchun unda bir qancha belgi va xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim sanaladi. Jumladan:

-davlat–hokimiyat boshqaruvi barcha afzalliklarining davlat institutlari tizimida uyg‘unlashuvi;

– hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi va amalda ularning bir-biridan mustaqilligi;

– fuqarolik jamiyatining mavjud ekanligi;

– hokimiyat vakolatlarining u yoki bu jabhada yoxud institutda to‘planib qolishiga yo‘l bermaydigan antimonopol mexanizmlarni yaratish;

– konstitusiyaviy qonunning ustunligi va bevosita faoliyati; – qonunlarda davlatning mustaqilligini rasmiylashtirish va uni amaliy ta’minlash;

– saylash huquqi normalari asosida qonun chiqaruvchi organlarni shakllantirish va qonunlarda davlat irodasini shakllantirish hamda ifodalash;

– ichki qonunchilikning xalqaro huquqning umum tan olgan normalari va prinsiplariga mosligini ta’minlash;

– davlat va shaxsning o‘zaro mas’ulligi¹⁵ va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi suveren, demokratik davlat ekanligidan tashqari, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 1-moddasiga ko‘ra huquqiy davlat deb e’lon qilingan. Bunday normaning mavjudligi mamlakatimiz suveren va demokratik davlat ekanligidan dalolat beradi. Umuman olganda, huquqiy davlat nima, uning qanday belgilari va prinsiplari bor degan savolga quyidagicha javob berish mumkin bo‘ladi. Huquqiy davlat - bu huquqiy asosda tashkil topadigan va jamiyat hayotining barcha sohalarida huquq ustuvorlik qiladigan davlat. Huquqiy davlat ayni paytda huquq ustunligi ta’minlangan, hokimiyatni taqsimlash prinsipi izchil amalga oshirilgan, shuningdek inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari tan olingan va kafolatlangan demokratik davlat hamdir.¹⁶ Shuningdek huquqiy adabiyotlarda huquqiy davlatga nisbatan quyidagicha qarashlar ham mavjud: “Huquqiy davlat siyosiy hokimiyatni tashkil etishning alohida shaklidir. U qonunning ustunligi va hokimiyatning legitimligi, huquqning baland nufuzi va samaraliligi bilan tavsiflanadi,

¹³ Demokratiya. URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Demokratiya>

¹⁴ Nations, United. "Democracy". United Nations. Retrieved 17 August 2023.

¹⁵ “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” M. Qirg‘izboev: Toshkent “Navro‘z” nashriyoti, 2014.

¹⁶ Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 237 bet

shaxsning huquqiy himoyalanganlik holatini va u demokratik huquq va erkinliklardan o‘z qonuniy manfaatlari yo‘lida moneliksiz foydalanishini kafolatlaydi”¹⁷ Huquqiy davlat bo‘lishi uchun ma’lum bir prinsiplar lozim sanaladi. Bu prinsiplar davlat o‘z faoliyatini tashkil etishda qanday rahbariy, asosiy qoidalar asosida faoliyat olib borishini belgilab beradi. Huquqiy davlatning quyidagilar asosiy prinsiplar hisoblanadi:

- huquqning ustunligi;
- hokimiyat vakolatlarining taqsimlanganligi;
- sudning mustaqilligi;

– inson huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi va boshqalar.¹⁸ Bundan tashqari, huquqiy davlatning rivojlanganlik darajasini belgilash uchun ma’lum bir belgilar lozim sanaladi. Uning quyidagi belgilari mavjud: a) fuqarolarning huquq va erkinliklarini huquqiy va har tomonlama kafolatlanishi; b) huquq va qonunning ustuvorligi; v) qonunlarning to‘g‘ri amal qilishi; g) fuqarolarning davlat oldidagi mas’uliyati va aksincha davlatning fuqarolar oldidagi mas’uliyati; hokimiyatlarning taqsimlanish prinsipini amaliyotga tatbiq qilinishi; d) jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan, demokratiya, qonuniylik va konstitutsiyaviylik rejimlarining mavjudligi.

Huquqiy davlatning shakllanishi va faoliyat yuritishning muhim shart-sharoitlari quyidagilar hisoblanadi: mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanganligi; jamiyatning barcha yoki ko‘pchilik a‘zolarining siyosiy va huquqiy ongining yuqori darajada ekanligi; ularning mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok eta olishi uchun umuminsoniy madaniyatga ega bo‘lishi; mamlakatda bir-biriga zid bo‘lmagan yagona qonunchilik tizimining mavjudligi. Huquqiy davlat nazariyasi bilan uni amalga oshirish o‘rtasida katta farq bor. Hozirgi paytda huquqiy davlat nazariyasi dunyodagi ko‘pgina davlatlarning konstitutsiyalarida o‘z aksini topgan. Masalan, 1978 yilda qabul qilingan Ispaniya Konstitutsiyasining 1-moddasi 1-bandida quyidagilar mustahkamlab qo‘yilgan: “Ispaniya – bu sotsial, huquqiy va demokratik davlat bo‘lib, bu davlatda oliy qadriyat erkinlik, adolat, tenglik va siyosiy hurfikrlilik hisoblanadi.”¹⁹ 1949 yilgi GFRning asosiy qonuniga ko‘ra “Germaniya Federativ Respublikasi demokratik va sotsial federativ davlat bo‘lib hisoblanadi” (20-modda)²⁰ hamda ularning konstitutsiyaviy tuzilmasi Asosiy Qonunga zid kelmasligi kerak (28-modda).²¹ Huquqiy davlat to‘g‘risidagi g‘oyalar Avstriya, Gretsiya, Italiya, Fransiya, Shvetsiya, Shveysariya va boshqa bir qator yuqori darajada rivojlangan davlatlarning konstitutsiyalarida belgilab qo‘yilgan. Huquqiy davlat to‘g‘risidagi g‘oya va

¹⁷ Islamov Z., Abbosxujayev S. Konstitutsiya – huquq ustunligi asosi. - T.: O‘zbekiston, 2012. - B. 244.

¹⁸ Sh.A. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 238 bet

¹⁹ Spanish Constitution: [Spanish Constitution | Senate of Spain \(senado.es\)](https://www.senado.es/)

²⁰ German Constitution: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html#p0108

²¹ German Constitution: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html#p0108

nazariyalarni dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar tan olsalar-da, ammo uni amaliyotda hamma davlatlar to'laligicha qo'llamaydilar. Hozirgi paytda huquqiy davlat to'g'risidagi g'oyani to'liq hayotga tatbiq qilgan biror-bir davlatni uchratmaysiz. Xuddi shu ma'noda huquqiy davlat to'g'risidagi nazariyalar har qanday demokratik davlat intilishi kerak bo'lgan ideal, etalon vazifasini o'taydi.²² Huquqiy davlatga oid nazariyalar xilma xildir va ushbu nazariyalarni amaliyotga tatbiq qilish bog'liq jarayonlar va islohotlar har doim muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, huquqiy huquqiy davlat nazariyasini amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa so'nggi choragiga kelib bir muncha oldinga siljish ro'y berdi. Huquqiy davlat nazariyasini amaliyotga tatbiq qilish qilishga jiddiy kirishgan davlatlarni uch guruhga bo'lish mumkin: a) konstitutsiyasida o'zini huquqiy davlat deb rasman e'lon qilgan davlatlar; b) o'z oldiga huquqiy davlatni barpo qilish etishni maqsad qilib, buni konstitutsiyasining muqaddimasida alohida qayd etgan davlatlar; v) asosiy qonunida o'zini huquqiy davlat deb qilmagan yoki o'z oldiga huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilib qo'rganligini qayd etmagan, lekin huquqiy davlat prinsiplarini konstitutsiyasida mustahkamlagan rivojlangan demokratik davlatlar²³. Hozirgi kunda ko'plab davlatlar o'zlarining huquqiy davlat ekanligini konstitutsiya darajasida rasman e'lon qilganlar. Jumladan, Armaniston - suveren, demokratik, ijtimoiy, huquqiy davlat²⁴ ekanligi konstitutsiyaning 1-moddasida, Vengriya qonun ustuvorligi bilan boshqariladigan mustaqil, demokratik davlatdir²⁵ ekanligi konstitutsiyaning ikkinchi paragrafida qayd etilgan. Ba'zi davlat esa o'zlarning huquqiy davlat qurish yo'lidagi maqsadlarini mamlakat konstitutsiyasining muqaddimasida e'lon qilgan. Misol uchun, Gruziya Konstitutsiyasining muqaddimasida mamlakatda ijtimoiy va huquqiy davlatni o'rnatish Gruziya fuqarolarining mustahkam irodasi ekanligi²⁶ ta'kidlangan bo'lsa, Litva Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida Litva xalqi huquqiy davlatga intiladi²⁷ deb mustahkamlab qo'yilgan. Ammo jahonda shunday davlat borki, ularning na konstitutsiyasida, na konstitutsiya muqaddimasida ularning huquqiy davlat ekanligi yozilgan. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Italiya, Fransiya va Yaponiya kabi rivojlangan demokratik davlatlar konstitutsiyalarida yoki konstitutsiyaviy qonunlarida ularning huquqiy davlat ekanligi rasman e'lon qilinmagan. Lekin ushbu davlatlarning konstitutsiyalari, qonunlari va davlatchilik amaliyoti, olib borayogan siyosati, ularda o'rnatilgan boshqaruv shakli va siyosiy rejimining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ular huquqiy

²²Ijtimoiy va huquqiy davlat. URL: <https://zarnews.uz/uz/post/ijtimoiy-davlat-nima-huquqiy-davlat-chi>

²³ To'rayev Bahodir Razoqovhich. Huquqiy davlat: g'oyalar, nazariya va amaliyot. // Diss. yu.f.n. – Toshkent: 2011. B-98.

²⁴The constitution of Armenia: https://www.constituteproject.org/constitution/Armenia_2015

²⁵The constitution of Hungary: https://www.constituteproject.org/constitution/Hungary_2011

²⁶ Конституция Грузии // Конституции мира: Сборник конституций государств мира. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистана, 1997. – Т.2. – С.345.

²⁷ Конституция Литовской Республики // Конституции мира: Сборник конституций государств мира. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистана, 1998. – Т.3. – С.279.

davlatning o'ziga xos xususiyatlarini, birinchi navbatda, huquqiy davlatning prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan.²⁸ Xulosa qilib aytganda, huquqiy davlat yer yuzidagi barcha davlat erishishi mumkin bo'lgan eng oliy maqsadlardan biri hisoblanadi. Chunki huquqiy davlatning mohiyatini huquqning oliy darajada e'tirof etilishi, uning so'zsiz hukmron bo'lishi, qonun ustovrligi mavjudligi, inson huquq va erkinliklarining kafolatlanganligi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsipining mavjudligi, ya'ni hokimiyatlar bir biridan mustaqil ravishda faoliyat olib borishi tashkil etadi. Umuman olganda, huquqiy davlatchilik konsepsiyasini ishlab chiqilishida bir qator yevropalik olimlar va mutafakkirlar o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shishgan. Jumladan, G. Grotsiy, B. Spinoza, T. Gobbs, J. Lokk, Sh. Monteske, D. Didro, P. Golbax, T. Jefferson va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suverenitet. URL: Suverenitet - Vikipediya (wikipedia.org)
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. Suverenitet. URL: Suverenitet - Vikipediya (wikipedia.org)
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti: <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. Asadov Shavkat G'aybullayevich, O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashitirish, Yuridik davlat doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2019
6. Bodinus. De Republica libri sex. Francoforti. 1954. P.123 et al.
7. Оппенгейм Л. Международное право. Т. 1. Мир. Полутом 1. -М., 1948. – С. 130.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat>
9. Уразаев Ш.З. Конституция независимого Узбекистана. -Т. :Адолат, 1993.- С.102.
10. Одилқориев, Ҳ.Т. Новая Конституция – великий символ суверенитета Узбекистана.-Т. :Адолат, 1993. – С.47
11. Islomov Z., Jo'rayev J. Xalqaro huquq va milliy huquq tizimi o'zaro nisbatining tarixiy-huquqiy, ilmiy-nazariy // TDYU axborotnomasi. – T., 2006.- №5. B.133.
12. Hyland J. L. Democratic Theory: The Philosophical Foundations. Manchester: Manchester Univ. Press, 1995. ISBN 978-0-7190-4517-2
13. Demokratiya. URL: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Demokratiya>
14. Nations, United. "Democracy". United Nations. Retrieved 17 August 2023.
15. "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" M. Qirg'izboev: Toshkent "Navro'z" nashriyoti, 2014.

²⁸ To'rayev Bahodir Razoqovhich. Huquqiy davlat: g'oyalar, nazariya va amaliyot. // Diss. yu.f.n. – Toshkent: 2011. B-98.

16. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 237 bet
17. Islamov Z., Abbosxujayev S. Konstitutsiya – huquq ustunligi asosi. - T.: O‘zbekiston, 2012. - B. 244.
18. Sh.A. Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 238 bet
19. Spanish Constitution | Senate of Spain (senado.es)
20. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html#p0108
21. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/englisch_gg.html#p0108
22. <https://zarnews.uz/uz/post/ijtimoiy-davlat-nima-huquqiy-davlat-chi>
23. To‘rayev Bahodir Razoqovhich. Huquqiy davlat: g‘oyalar, nazariya va amaliyot. // Diss. yu.f.n. – Toshkent: 2011. B-98.
24. https://www.constituteproject.org/constitution/Armenia_2015
25. https://www.constituteproject.org/constitution/Hungary_2011
26. Конституция Грузии // Конституции мира: Сборник конституций государств мира. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистана, 1997. – Т.2. – С.345.
27. Конституция Литовской Республики // Конституции мира: Сборник конституций государств мира. – Ташкент: Академия МВД Республики Узбекистана, 1998. – Т.3. – С.279.
28. To‘rayev Bahodir Razoqovhich. Huquqiy davlat: g‘oyalar, nazariya va amaliyot. // Diss. yu.f.n. – Toshkent: 2011. B-98.